

Raqamli iqtisodiyot

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari

Xamrayeva, Sayyora Nasimovna, Ravshanova, Nigora Ulugbek qizi

Вопросы развития цифровой экономики в Узбекистане

Хамраева, Сайёра Насимовна, Равшанова, Нигора Улугбек кизи

Issues of developing the digital economy in Uzbekistan

Xamraeva, Sayyora Nasimovna, Ravshanova, Nigora Ulugbek kizi

■ Received: June 6, 2024 ■ Revised: June 9, 2024 ■ Accepted: June 15, 2024 ■ Published Online: July 1, 2024

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishining huquqiy asoslariga oid muammolar asoslangan. Bugungi kun holatidagi raqamli iqtisodiyot dunyo mamlakatlarining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishidagi muhim roli va ahamiyati, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari yoritib berilgan. «Elektron hukumat» tizimini joriy etishda ta'sirchan muvofiqlashtiruv va yagona texnologik yondashuv asosida resurslarning oqilona foydalanimishiga olib kelishini hamda tadbirlarning samaradorligining oshishiga qaratildi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va rivojlanish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tub islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan yo'naliishlar keltirib o'tilgan. Raqamli iqtisodiyot davrida huquqiy xavfsizlik darajasini baholash, iqtisodiyot tarmoqlarida chuqur tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, tovarlar va xizmatlarning sifatlari bozorini shakllantirgan holda raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini jadallashtirishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, elektron hukumat, tadbirkorlik subyektlari, naqd bo'limgan elektron to'lovlar.

Аннотация. В данной статье обосновываются проблемы, связанные с правовой основой развития цифровой экономики в Узбекистане. Подчеркнуты важная роль и значение цифровой экономики в социально-экономическом развитии стран мира сегодня, а также перспективы развития цифровой экономики в нашей стране. Внедрение системы «Электронное правительство» было ориентировано на эффективную координацию и патриотическое использование ресурсов на основе единого технологического подхода, а также повышение эффективности деятельности. Были упомянуты направления, направленные на реализацию фундаментальных реформ по либерализации и развитию экономики, улучшению бизнес-среды, повышению конкурентоспособности отраслей экономики. Подчеркивается важность оценки уровня правовой безопасности в эпоху цифровой экономики, осуществления глубоких структурных изменений в отраслях экономики, ускорения процесса перехода к конкурентной рыночной экономике при формировании качественного рынка товаров и услуг.

Ключевые слова: цифровая экономика, электронная коммерция, электронное правительство, субъекты хозяйствования, безналичные электронные платежи.

Abstract. In this article, the problems related to the legal basis of the development of the digital economy in Uzbekistan are based. The important role and importance of the digital economy in the social and economic development of the countries of the world today, as well as the prospects for the development of the digital economy in our country, are highlighted. The implementation of the "Electronic Government" system was focused on effective coordination and the rational use of resources based on a single technological approach, as well as an increase in the efficiency of activities. The directions aimed at the implementation of fundamental reforms for the liberalization and development of the economy, improvement of the business environment, and the increase of the competitiveness of economic sectors have been mentioned. The importance of assessing the level of legal security in the era of digital economy, implementing deep structural changes in economic sectors, accelerating the process of transition to a competitive market economy while forming a high-quality market of goods and services is highlighted.

Key words: digital economy, e-commerce, e-government, business entities, non-cash electronic payments.

KIRISH

XXI asr boshi axborot inqilobi va iqtisodiyotning globallashuv jarayonlariga asoslangan raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishini olib keldi. Hozirgi vaqtida bozor subyektlari faoliyatining asosiy va eng muhim omili biznes jarayonlari va boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirishdir. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya iqtisodiyotning barcha darajalari, tarmoqlari va tarmoqlariga ta'sir ko'rsatadi.

Raqamlashtirish tovarlar, xizmatlar va mehnat uchun yaratilgan bozorlarni, shuningdek, davlat sektorining ishlash tamoyillarini faollashtiradi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda iqtisodiyot faoliyatining eng muhim jihatni tashqi global omillarni hisobga olishdir.

Jahon iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyot sohasidagi liderlik uchun jiddiy raqabot ketmoqda va shu bilan birga aytish lozimki, alohida mamlakatlar uchun bunday rivojlanishdan orqada qolish mamlakat iqtisodiyotini salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Raqamli iqtisodiyotni rivojlanirish birinchi navbatda uning o'ziga xos xususiyatlarini va normativ huquqiy asoslarini yaratish lozim bo'ladi. Raqamli iqtisodiyotning asosini uning strategiyasiga amal qilgan holda, raqamli iqtisodiyot asosiy ishlab chiqarish omili raqamli shakldagi ma'lumotlar bo'lgan, fuqarolar va jamiyatning sifatli va ishonchli ma'lumotlar olishga ehtiyojlarini hisobga olgan holda axborot makoni shakllantirishga, O'zbekiston Respublikasi axborot infratuzilmasini rivojlanirishga, milliy axborot-telekommunikasiya texnologiyalari yaratish va qo'llashga, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy sohalar uchun yangi raqamli texnologiyalar asosida shakllantirishga xizmat qiladigan xo'jalik yuritish faoliyatini ifodalaydi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlanirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 4-dekabrdagi "2016 — 2018 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratni rivojlanirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 353-son qarori qabul qilindi. Ushbu

qarorda asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:
elektron tijorat to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
kelgusida ushbu biznes-segmentda rivojlangan mamlakatlarga yaqinlashgan darajaga erishishni nazarda tutgan holda elektron tijorat sohasida tadbirkorlikni yanada rivojlanirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
elektron tijorat infratuzilmasini, shu jumladan, telekommunikasiyalar tarmog'ini yanada rivojlanirish va modernizasiyalash;
tovar aylanmasini, mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish, iste'mol bozori talabiga muvofiq ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish;
integrasiyalashtirilgan savdo va marketing platformalarini, internet-magazinlarni, yanada takomillashtirilgan to'lov tizimlarini, shuningdek elektron tijoratda logistika tizimini yaratish;
tadbirkorlikni rivojlanirish yo'llidagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, xalqaro standartlarga yo'naltirgan holda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash;
elektron tijorat sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, tahlil qilish va qo'llash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham raqamli iqtisodiyotning avfzalliklari hamda mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan. Xususan, Xamraeva S. N. O'zbekistonda elektron tijorat va elektron savdoni rivojlanirish xususiyatlari [4], Добринин, А.П. raqamli iqtisodiyot - texnologiyadan samarali foydalanishning turli yo'llari, uning ko'lami, Кешелава А.В tomonidan mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda raqamli iqtisodiyotning to'tgan o'rni va uning kamchiliklari, Маркова В.Д. tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlanirishda salohiyatli kadrlarni

yetshtirish muammolariga to'xtalib o'tishgan. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqish rossiyalik olimlar Шваб К, Шипов С kabi olimlar amalga oshirgan.

Raqamli iqtisodiyotni normativ tartibga solishning hozirgi holati raqamli iqtisodiyotni emas, an'anaviy iqtisodiyotni tartibga solishga tayanadi. Ularning qoidalari raqamli iqtisodiyotga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan (va qo'llanayotgan) ko'plab hujjatlar to'plami mavjud. Bunda raqamli iqtisodiyotni tartibga solish uchun maxsus yaratilgan va uning o'ziga xosliklarini aks ettiradigan alohida hujjatlar ham mavjud, lekin ularning soni ko'p emas va asosan, elektron hujjat aylanma va elektron savdoga taalluqli hisoblanadi.

An'anaviy iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyot uchun normativ huquqiy tartibga solish umumiylar manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrdagi "Elektron hukumat to'g'risida"gi O'RQ-395-son Qonuniga [1] asosan:

davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofigini ta'minlash, ularning mas'uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan axborot almashishni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish;

ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlar yaratish;

o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma'lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona reyestrini shakllantirish;

aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o'zaro hamkorligi va ularning ma'lumotlar bazalari o'rtaida axborot almashinuvni mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida «bir darcha» prinsipini joriy etish;

tadbirkorlik subyektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruvi, lisenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berish jarayonlarida, shuningdek davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o'tkazish;

tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog'i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to'lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;

naqd bo'limgan elektron to'lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bankmoliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish.


O'zbekiston Respublikasi savdo haqida qonunchilik va ularning qonun-qoidalari raqamli iqtisodiyotga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan (yoki qo'llanayotgan) boshqa hujjatlar namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3724-son qarori [2] bilan tijoratning to'laqonli bozorini yaratishga, tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarining tashqi bozorlarga chiqishiga birinchidan, elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning amalda tizimi soha taraqqiyotining jadal sur'atlardagi o'zgarishlariga mos keltirish va o'z navbatida aholi keng qatlami va tadbirkorlik subyektlari uchun elektron tijoratdan foydalanish imkonini ta'minlash ;ikkinchidan, mahalliy tadbirkorlik subyektlariga tashqi bozorlarda to'liq raqobatlashish, elektron tijorat orqali tovarlar (xizmatlar)ni eksport qilishning eskirgan byurokratik to'siqlarga barham berish; uchinchidan, elektron tijoratni rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish jarayoni lozim darajada yo'lga qo'yish, to'rtinchidan, mahalliy to'lov tizimlarining mashhur xorijiy analoglari bilan integrasiysi, mamlakat tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat sohasidagi yetakchi xorijiy tashkilotlar bilan to'liq xalqaro hamkorlikda ishlashlariga, shuningdek, mahalliy bozorning eksport salohiyati va raqobatbardoshligiga ta'sir qilish; beshinchidan, elektron tijorat imkoniyatlari va afzalliklarini, jumladan, tovarlar (xizmatlar) uchun, ayniqsa, joylarda naqd pulsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish, bu esa xufyona iqtisodiyot hajmining oshishiga va davlat byudjetiga soliq tushumlarining kamayishining oldinioladi; oltinchidan, amalda soliqqa tortish tizimi elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlik subyektlari, jumladan, axborot vositachilar faoliyatini kengaytirishni rag'batlantirish nazarda tutgan edi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni meyoriy tartibga solishning holati ilmiy hamjamiyat tomonidan tanqidiy baholanadi. Huquqiy tartibga solishning amaliyot ehtiyojlaridan yaqqol otrda qolishi kuzatilmoxda, bunda vaqt bo'yicha ortda qolish tobora ortib bormoqda. Shu sababi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-son qarori [3] bilan iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko'lamlı chora-tadbirlar ko'rilmoxda, elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda.

Axborot-texnologik platformalarda faoliyat ko'rsatadigan raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanmoqda, bu esa shunday platformalarning yangi modellarini yaratish zaruratinini taqozo etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish jarayonida mavzu yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda kuzatish, solishtirish, suhbat, anketa so'rovlari kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.



1-rasm. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Oxirgi yillarda raqamli iqtisodiyotni kompleksli va jadal (yangi qonunchilik joriy qilish umumiy mezonlari bo'yicha) tartibga solish g'oyasi ustunlik qildi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5598-sون farmoni raqamlashtirishni ta'minlashga va raqamli iqtisodiyotga o'tishga to'sqinlik qilayotgan qator hal qilinmagan muammo va kamchiliklar hal qilish maqsadida, davlat axborot tizimlarini rivojlantirishning yagona prinsiplari ishlab chiqish, «Elektron hukumat» tizimi infratuzilmasi lozim darajada rivojlantirish, bu davlat xizmatlarini ko'rsatishda va idoralararo elektron hamkorlik qilishda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng qo'llashga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

«Elektron hukumat» tizimini joriy etishda ta'sirchan muvofiqlashtiruv va yagona texnologik yondashuv asosida resurslarning oqilona foydalilishiga olib kelishini hamda tadbirlarning samaradorligining oshishiga qaratildi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, «Elektron hukumat» tizimining joriy etilishini ta'minlash, aholi, biznes va davlat o'rtaida samarali o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tub islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini malga oshirish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqaror, ijobjiy o'sishini ta'minlamoqda.

Strategik rivojlanish hujjatlari, yangi qonunchilik va boshqa meyoriy hujjatlar rejalashtirilgan o'zgarishlar uchun asosiy g'oyasi bo'lishi lozim bo'lib, ularning bir qismi qabul qilingan, me'yoriy hujjatlarning boshqa qismini isloh qilish, shuningdek, yangi qonunlar qabul qilish ko'zda tutilgan bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614-sон farmoni Respublikamizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, valyuta bozorini erkinlashtirish, yuqori likvidli tovarlarni sotishning bozor usullarini joriy etish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar aholining keng qatlamlarini tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratdi hamda iqtisodiy islohotlarni izchil davom ettirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

1-jadval

O'zbekiston hududlarida optik tolali aloqa liniyalarining uzunligi, ming km¹

HUDUDLAR	YILLAR								2022-YILDA 2015-YILGA NISBATAN O'ZGARISHI, (+;-)
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	
O'zbekiston Respublikasi	20	22,1	24,5	26,6	36,6	68,6	118	170,6	150,6
	1,7	1,9	2	2,1	3,1	4	8,6	11,7	10
viloyatlar:									
Andijon	1,1	1,3	1,4	1,5	2,5	4,3	6,8	10,2	9,1
Buxoro	1,3	1,4	1,5	1,6	2,3	4,3	8,3	13,6	12,3
Jizzax	0,9	1	1,1	1,3	1,8	2,4	5,1	8,2	7,3
Qashqadaryo	1,1	1,3	1,4	1,6	2,1	5	7,8	10,3	9,2
Navoiy	1,4	1,5	1,6	1,7	2,3	2,6	7	9,5	8,1
Namangan	1,1	1,1	1,3	1,4	2	4,9	7,7	11,1	10
Samarqand	1,1	1,2	1,3	1,5	2,1	6,1	11	15,9	14,8
Surxondaryo	0,9	1	1,1	1,3	1,7	4,1	7,5	9,9	9
Sirdaryo	0,8	0,9	0,9	1	1,7	2,2	6,4	8,4	7,6
Toshkent	2,2	2,5	2,9	3,1	4,2	6,5	10,5	15,6	13,4
Farg'ona	1,3	1,4	1,6	1,7	2,2	6,4	9,2	13	11,7
Xorazm	1	1,1	1,3	1,5	2	3,5	6,8	10,5	9,5
Toshkent sh.	4,1	4,5	5	5,3	6,8	11,9	15	22,7	18,6

Tahlillarga ko'ra, respublikada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda hududlarda internet qamrovini oshirish bo'yicha olib borilgan chora-tadbirlar natijasida optik tolali kabel liniyalar uzunligi (1-jadval) respublikada 2022 yilda 2015 yilga nisbatan 150,6 ming km ga ko'payganligini ko'rish mumkin, shu jumladan, Qashqadaryo viloyatida ushbu davr mobaynida 9,2 ming km ga ko'paygan bo'lib, 2022 yil yakunlariga ko'ra 10,3 ming km ni tashkil etgan.

Tahlillarga ko'ra, respublikada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda hududlarda internet qamrovini oshirish bo'yicha olib borilgan chora-tadbirlar natijasida optik tolali kabel liniyalar uzunligi (1-jadval) respublikada 2022 yilda 2015 yilga nisbatan 150,6 ming km ga ko'payganligini ko'rish

mumkin, shu jumladan, Qashqadaryo viloyatida ushbu davr mobaynida 9,2 ming km ga ko'paygan bo'lib, 2022 yil yakunlariga ko'ra 10,3 ming km ni tashkil etgan.

Shuningdek, hududlarda internet qamrovini oshirish maqsadida mobil stansiyalar soni ham ko'payib bormoqda (2.2-jadval).

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, uyali mobil aloqa tayanch stansiyalari soni 2022-yilda 2017-yilga nisbatan 33,6 mingtaga ko'paygan, shu jumladan, Qashqadaryo viloyati bo'yicha mazkur davr mobaynida 3,0 mingtaga ko'payganligini, ya'ni 2022-yil yakunlariga ko'ra uyali mobil tayanch stansiyalar soni 4,4 mingtani tashkil etganini ko'rish mumkin.

1 O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma'lumotlariga asosan muallif ishlanmasi

2-jadval

Hududlar bo'yicha uyali mobil aloqa tayanch stantsiyalari soni, ming dona¹

HUDUDLAR	YILLAR						2022 YILDA 2017 YILGA NISBATAN, +;
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	
O'zbekiston Respublikasi	20	24,1	26,1	31,7	45,9	53,6	33,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,9	1,1	1,3	1,5	2,8	3	2,1
viloyatlar:							
Andijon	1,6	1,9	2	2,4	3,7	4,1	2,5
Buxoro	1	1,2	1,2	1,5	2,4	2,8	1,8
Jizzax	0,8	1	1,1	1,4	2	2,5	1,7
Qashqadaryo	1,4	1,8	1,8	2,4	3,7	4,4	3
Navoiy	0,7	0,9	1	1,2	1,9	2,3	1,6
Namangan	1,5	1,8	2	2,5	3,3	3,7	2,2
Samarqand	1,6	1,9	2	2,7	4	4,9	3,3
Surxondaryo	1	1,2	1,3	1,6	2,8	3,4	2,4
Sirdaryo	0,5	0,7	0,8	0,9	1,4	1,5	1
Toshkent	2,5	2,8	3,1	3,6	5,6	6,5	4
Farg'onha	2,1	2,5	2,7	3,4	4,4	5,1	3
Xorazm	0,8	1,1	1,3	1,6	2,5	2,7	1,9
Toshkent sh.	3,5	4,1	4,3	5	5,5	6,7	3,2

Hududlarda optik tolali kabel liniyalarni o'tkazilishi hamda mobil tayanch stantsiyalarning ko'payishi respublika bo'yicha internetga kirish imkoniyati bo'lgan uy xo'jaliklar va internetga ulangan korxonalar sonining ko'payishiga olib keldi. Buni 3 va 4-jadval ma'lumotlar tahlilida ko'rish mumkin. Tahlillarga ko'ra, respublikada 2017-2023 yillar mobaynida xizmat turlari bo'yicha internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklari ulushi ortib borgani aniqlandi, xususan yer ustidagi (simsiz) keng yo'lakli tarmoqdan foydalanuvchilar 16,9 foizga va portativ qurilmadan foydalaniladigan keng yo'lakli mobil tarmoqdan foydalanuvchilar 15,7 foizga ko'paygan. Umuman olganda, internetga ulangan jismoniy va yuridik maqomga ega bo'lgan abonentlar soni yil sayin ko'payib borayotganligi 4-jadval ma'lumotlari tahlilida ko'rish

mumkin. Tahlillarga ko'ra, respublika bo'yicha 2022-yilda 2017-yilga nisbatan jami internetga ulangan abonentlar soni 139,3 foizga, shu jumladan, jismoniy shaxslar 133,8 foizga va yuridik shaxslar 285,4 foizga ko'paygan. Shuningdek, keng polosali ulangan abonentlar 269,2 foizga va mobil aloqa orqali ulangan abonentlar 134,1 foizga ko'paygan.

Iqtisodiyot tarmoqlarida chuqur tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, tovarlar va xizmatlarning sifatlari bozorini shakllantirgan holda raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini jadallashtirish, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish va mustahkamlash, davlat aktivlarini boshqarishda bozor tamoyillarini joriy etish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma'lumotlariga asosan tuzilgan

3-jadval

Xizmat turlari bo'yicha internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklari ulushi¹, %

KO'RSATKICH NOMI	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2023 YILDA 2017 YILGA NISBATAN O'ZGARISHI, +;-
Qayd qilingan (simli) tor yo'lakli tarmoq	1,3	1,1	0,6	0,6	1	0,9	0,9	-0,4
Qayd qilingan (simli) keng yo'lakli tarmoq	2,3	2,4	0,3	1,2	1,8	2,4	5,2	2,9
Qayd qilingan yer ustidagi (simsiz) keng yo'lakli tarmoq	3,4	5,3	6,6	8,1	11,7	10,2	20,3	16,9
Sun'iy yo'l doshli keng yo'lakli tarmoq (sun'iy yo'l dosh aloqasi orqali)	0	0	4,9	5,1	3,6	3,2	8,4	8,4
Portativ qurilmadan foydalaniladigan keng yo'lakli mobil tarmoq	66,3	68,2	84,2	86,1	78,3	70,3	82	15,7
Kompyuterga moslashtirilgan SIM-karta yoki USB modemdan-foydalaniladigan keng yo'lakli mobil tarmoq	12,3	9,7	1,6	0,2	6,6	5,5	7,1	-5,2

Mamlakat makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab turish, samarali fiskal siyosatni yuritish, soliqa tortish tizimi va soliq ma'muriyatichilagini tubdan isloh qilish; asosiy resurslarni taqsimlashda bozor tamoyillarini keng joriy qilish asosida respublikaning raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga o'tishi jarayonlarini tezlashtirish; fuqarolarning ijtimoiy himoyasi va ularga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini mustahkamlash, aholining ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlamlarini himoya qilish hajmlari va turlarini ko'paytirish; davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini yanada oshirish, xususiy sektorni rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash; tabiiy boyliklardan foydalanish samaradorligini oshirish, atrof-muhit muhofazasini ta'minlash, suv resurslarni boshqarishni takomillashtirish, irrigasiya va meliorasiya tizimlarini modernizasiya qilish bo'yicha raqamli iqtisodiyotni yo'lga qo'yish nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-maydagi "Raqamli iqtisodiyot va «Elektron hukumat» tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4321-son qarori bilan «Raqamli ishonch» raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan «UZINFOCOM davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator» MCHJning ustav kapitalidagi davlat ulushini kamida 51 foizga oshirishni

ta'minlash; «UZINFOCOM davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator» MCHJ ustav kapitalidagi davlat ulushini keyinchalik «Universal Mobile Systems» MCHJga ustav kapitalini ko'paytirish. «Elektron hukumat» va raqamli iqtisodiyot tizimini rivojlantirish doirasida idoralararo va idoraviy axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari, dasturiy mahsulotlarni yaratish va joriy etish bo'yicha qarorlar buyurtmachini majburiy tarzda belgilash, «Elektron hukumat» va raqamli iqtisodiyot tizimi doirasidagi loyihalarni amalga oshirish maqsadida: davlat boshqaruvida axborot tizimlarini joriy etish, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning elektron hamkorligini ta'minlash uchun idoraviy va idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmoqlarini rivojlantirish va faoliyat yuritish qismida — O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi; davlat organlari va boshqa tashkilotlarda axborot tizimlarini nazorat qilish va axborot xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish qismida — O'zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikasiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi; idoraviy axborot tizimlari va axborot resurslarining uzlusiz ishlashini ta'minlash, elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini rivojlantirish qismida — vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar tomonidan

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari, uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvi natijalariga asosan tuzilgan.

ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha harakatlar strategiyasini 2020-yil 2-martdagи «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5953-son farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi va Senati faoliyatida 2020-yildan boshlab fuqarolarning Internet tarmog'idagi murojaatlari asosida parlament va deputat so'rovlari shakllantirish, saylovchilar bilan bevosita mulqot qilish maqsadida elektron portal va mobil ilovadan foydalanish imkonini beruvchi «Elektron parlament» tizimi joriy etish va dasturda raqamli iqtisodiyot xo'jalik faoliyati sifatida tavsiflanadi. Dasturda raqamli iqtisodiyot unda asosiy ishlab chiqarish omili raqamli shakldagi ma'lumotlar hisoblangan hamda jamiyat va fuqarolarning sifatli va ishonchli ma'lumotlar olishga ehtiyojini hisobga olgan holda axborot makonini

shakllantirishga, axborot infratuzilmasini rivojlantirishga, Respublika axborot-telekommunikasiya texnologiyalarini yaratish va qo'llashga, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy soha uchun yangi texnologik asoslar shakllantirishga xizmat qiladigan xo'jalik faoliyati sifatida tavsiflanadi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini boshqarish uchun «yo'l xaritasi» shakllantirilgan bo'lib, u har bir asosiy yo'naliishi bo'yicha dasturning maqsadlari va asosiy vazifalari tavsifidan iborat bo'ladi, shuningdek, ularga erishish muddatini belgilab beradi. Hukumat dasturi haqiqatda bajarilgan holatda o'zgarishlarning ijobiy tomoni eng avvalo, davlat organlari uchun ochiq bo'lgan katta ma'lumotlarni jipslashtirish va boshqarishni markazlashtirish darajasini oshirishdan iborat. Biznes uchun (eng avvalo, yirik biznes uchun, chunki bu borada uning imkniyatlari ko'proq) Dastur va Rejaga kiritilgan imtiyozlar olish va ma'lumotlar to'plamiga ulanishni kengaytirish hisobiga ma'lum bir (jumladan, iqtisodiy) foyda ham kuzatiladi.

4-jadval

Ma'lumotlar uzatish tarmog'i ko'rsatkichlari, ming birlik¹

KO'RSATKICHLAR	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2022 YILDA 2017 YILGA NISBATAN O'ZGARISHI; +/-
Ma'lumot uzatuvchi tarmog'iga ulangan, Internetni qo'shgan holda abonentlar soni	20607,8	20284,9	22457,7	26437,4	29500,2	33681,7	163,4
Internet tarmog'iga ulangan	11168	13321,7	16386,2	19981	22987,2	26723,6	239,3
jismoniy shaxslar	10764,3	12883,3	15750,8	19241,3	22112,1	25167,9	233,8
yuridik shaxslar	403,7	438,4	635,4	739,7	875,1	1 555,70	385,4
Internet tarmog'iga keng polosali ulanish bo'yicha abonentlar soni	498,5	622,2	725,4	1080	1457,5	1 840,30	369,2
Internet tarmog'iga mobil aloqa orqali ulangan abonentlar soni	10258,8	12668,6	15 651,20	17946,5	20991,8	24017,6	234,1

Davlat tomonidan iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlı choralar ko'rilmoxda, elektron hujjat aylanmasi tizimi joriy qilinmoqda, elektron to'lovlari rivojlantirilmoxda va elektron tijorat sohasidagi me'yoriy-huquqiy baza takomillashtirilmoxda.

Raqamli iqtisodiyot davrida huquqiy xavfsizlik darajasini baholashda quyidagi sohalarda huquqiy vaziyatni hisobga olish zarur:

- raqamli iqtisodiyot xalqaro huquqi, uni mamlakatda va xorijda qo'llash amaliyoti;
- raqamli iqtisodiyot milliy huquqi va uni qo'llash amaliyoti;
- raqamli iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish vakolatli organlari ishi;
- raqamli iqtisodiyot davlat va xususiy apparat konstruksiyalari, jumladan, bulutli servislari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga asosan tuzilgan.

arxitekturasi;

- qo'llanadigan raqamli iqtisodiyot mahsulotlari, jumladan, bulutli servislarda;
- raqamli iqtisodiyotda fuqarolar, jamiyat va biznesning raqamli platomalar;
- raqamli iqtisodiyot bo'yicha milliy va mintaqaviy axborot resurslari;
- davlat amaldorlari, olimlar va amaliyotchi mutaxassislar muloqoti ixtisoslashgan forumlari; hozirgi kunda yo'l boshida mamlakatga sanoatchi va tadbikorlar ittifoqi, Yevropa biznes assosiasiyasi, O'zbekiston Respublikasi yuristlar assosiasiyasi, O'zbekiston Respublikasi korporativ yuristlar assosiasiyasi, O'zbekiston Respublikasi direktorlar AT kengashi, istisnosiz barcha integral, tarmoq va mintaqaviy tadbirkorlar birlashmalaridan professionallar va ilm-fanning tanqidiy ovozi zarur;
- raqamli iqtisodiyot uchun texnik, huquqiy va boshqaruv ta'lim tizimlari va h.k.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy dunyoning ajralmas qismiga aylandi va O'zbekiston ham bu global tendentsiyadan chetda qolmadidi. Mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari raqamli infratuzilmani mustahkamlash, aholining elektron savodxonligini oshirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Raqamli iqtisodiyot davri butun dunyo mamlakatlari uchun ko'plab yangi imkoniyatlar va muammolarni keltirib chiqardi. O'zbekiston suveren davlat sifatida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida ham bir qancha muammolarga duch kelmoqda.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan taddiqotlar natijasida quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi:

1. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi asosiy muammolardan biri zarur jismoniy va axborot infratuzilmasining yo'qligi hisoblanadi. Respublikamiz hududlarida internet tarmog'iga keng polosali ularish va GPS-texnologiyalarining yetarli darajada ta'minlanmagani raqamli xizmatlar rivojiga to'sqinlik qilib, elektron tijorat va elektron hukumatni yaratishga to'sqinlik qilmoqda.

2. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lidagi navbatdagi jiddiy to'siq aholining raqamli savodxonlik darajasining pastligi va shu soha bo'yicha zaruru malakali kadrlarning yetishmasligidir. Axborot texnologiyalarini sohasida mutaxassislar yetishmasligi innovatsion loyihalarni ishlab chiqishni susaytiradi, biznes va davlat

sektorida raqamli texnologiyalardan keng foydalanishning oldini oladi.

3. Raqamli iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun aniq va xalqaro standartlarga mos keladigan qonunchilik va samarali tartibga solish tizimiga ega bo'lish zarur. Biroq, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sohasidagi qonunchilik tushunchasi va yondashuvlari endigina rivojlana boshlamoqda.

4. Raqamli startaplar uchun moliyalashtirish va investitsiyalardan foydalanish imkoniyati cheklangan. O'zbekistonda IT-loyihalarni moliyalashtirish va investitsiyalashning qulay va moslashuvchan mexanizmlari yetarli emas, bu esa ularni rivojlantirishni qiyinlashtiradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan:

1. O'zbekiston iqtisodiyot va jamiyatni raqamlashtirish bo'yicha yetakchi bo'lishga intilmoqda. Bunga erishish uchun AKT sohasida islohotlar olib borilmoqda, yuqori tezlikdagi internet, elektron hukumat va elektron tijoratni rivojlantirish uchun infratuzilma va shart-sharoitlar yaratilmoqda.

2. O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Onlayn tijoratni rivojlantirish, jumladan, onlayn xarid qilish tartib-taomillarini soddalashtirish va elektron to'lov tizimlarini yaratish uchun sharoitlar yaratilmoqda.

3. Raqamli infratuzilmani yaratish, bunda yuqori tezlikdagi internet aloqasi va raqamli tarmoqlarni yaratish, tarmoq infratuzilmasini rivojlantirish hamda ta'lim va tibbiyot muassasalarini raqamlashtirish bo'yicha ishlarni.

4. O'zbekistonda axborot va kiberxavfsizlikni himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar faol ishlab chiqilmoqda. Axborotni kiberhujumlar va kiberjinoyatlardan himoya qilish mexanizmlari yaratilmoqda, kiberxavfsizlik sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirib borish. Barcha darajadagi, jumladan, universitetlar, umumta'lim maktablari va o'quv markazlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ta'lim dasturlarini kengaytirish, raqamli texnologiyalar bo'yicha ta'lim va kasb tanlagan yoshlar uchun stipendiya va grantlar kabi imtiyozlarni oshirish.

5. O'zbekiston elektron hukumatga o'tish va davlat xizmatlarini onlayn ko'rsatish tarafdori. Soliq deklaratsiyasini elektron shaklda topshirish, elektron davlat xaridlari tizimi va boshqalar kabi elektron xizmatlar ko'rsatish platformalari yaratilmoqda, yuqori tezlikdagi internet va eng so'nggi texnologiyalardan keng foydalanish imkonini beruvchi infratuzilmaga investitsiyalar hajmini oshirish.

6. Raqamli iqtisodiyotning xususiyatlarini hisobga

oladigan, ma'lumotlar himoyasi, internet xavfsizligi va elektron autentifikatsiyani ta'minlaydigan qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish.

7. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini boshqarish uchun «yo'l xaritasi» shakllantirilgan bo'lib, u har bir asosiy yo'nalish bo'yicha dasturning maqsadlari va asosiy vazifalari tavsifidan iborat bo'ladi, shuningdek, ularga erishish muddatini belgilab beradi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xamrayeva, Sayyora Nasimovna - Qarshi muhandis-lik-iqtisodiyot instituti "Innovatsion iqtisodiyot" kafe-drasi professori / Хамраева, Сайёра Насимовна - Каршинский инженерно-экономический институт, профессор / Xamraeva, Sayyora Nasimovna - Professor Karshi Engineering Economics Institute
 - xamrayevasayyora@gmail.com
 - <https://orcid.org/0000-0001-6516-5226>
2. Ravshanova, Nigora Ulugbek qizi - QarMII magistranti / Равшанова, Нигора Улугбек қизи - магистрант Каршинского инженерно-экономического института / Ravshanova, Nigora Ulugbek kizi - master's student of Karshi Engineering Economics Institute

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrdagi "Elektron hukumat to'g'risida"gi O'RQ-395-son Qonuni.

- [2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3724-son qarori.
- [3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldag'i "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-son qarori.
- [4] Xamraeva S. N. O'zbekistonda elektron tijorat va elektron savdoni rivojlantirish xususiyatlari // Zamonaviy sharoitda biznes tuzilmalarini boshqarish nazariyasи va amaliyoti. – 2023. – B. 107-113.
- [5] Добринин, А.П. Цифровая экономика – различные пути к эффективному применению технологий (БИМ, ПЛМ, САД, ИОТ, Смарт Сити, БИГ ДАТА и другие). М.:2016
- [6] Кешелава А.В. Введение в «Цифровую» экономику/ А.В. Кешелава В.Г. Буданов, В.Й. Румянцев и др.; под общ. ред. А.В. Кешелава; гл. «цифр.» конс. И.А. Зимненко. - ВНИИГеосистем, 2017. - С. 12.
- [7] Маркова В.Д. Цифровая экономика: учебник / В.Д. Маркова. — Москва : ИНФРА-М, 2020. — 186 с
- [8] Шваб К. Четвертая промышленная революция / Пер. с англ. М.: Эксмо, 2016
- [9] Шипов С. Цифровая экономика. М.2018
- [10].<https://www.statista.com/statistics/534123/e-commerce-share-of-retail-sales-worldwide/> E-commerce as percentage of total retail sales worldwide from 2015 to 2026.